

"Angren logistika markazi" AJ
Yagona aksiyadorining
2024 yil 24 yanvardagi
06/09-2qr - sonli qarori bilan

"TASDIQLANGAN"



Angren shahar Davlat xizmatlari markazi
tomonidan
2024 yil 1 fevralda
2373552-sonli reestr raqami bilan

"QAYTA RO'YXATGA OLINGAN"

«ANGREN LOGISTIKA MARKAZI» AKSIYADORLIK JAMIYATI USTAVI

Ангрен шаҳри 2024 йил

1-modda
Umumiq qoidalar

1.1. "Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyati (bundan keyin matnda jamiyat deb yuritiladi) o'z faoliyatini "aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, ushbu ustav va amaldagi boshqa qonun hujjalariiga amal qilgan holda yuritadi.

1.2. Jamiyatning nomi:

Davlat tilida:

- To'liq nomi - "ANGREN LOGISTIKA MARKAZI" aksiyadorlik jamiyati.
- Qisqartirilgan nomi - "ANGREN LOGISTIKA MARKAZI" AJ.

Rus tilida:

- To'liq nomi - Aktionernoje obshchestvo "SENTR LOGISTIKI ANGREN".
- Qisqartirilgan nomi - AO "SENTR LOGISTIKI ANGREN".

Ingliz tilida:

- To'liq nomi - "ANGREN LOGISTICS CENTER" Stock Joint Company.
- Qisqartirilgan nomi - "ANGREN LOGISTICS CENTER" SJC.

1.3. Jamiyatning yuridik va pochta manzili, hamda joylashgan manzili:

- yuridik manzili - O'zbekiston Respublikasi, indeks 110200, Toshkent viloyati, Angren shahar, Ipak yo'li ko'chasi, 1-uy.
- pochta manzili - O'zbekiston Respublikasi, indeks 110200, Toshkent viloyati, Angren shahar, Ipak yo'li ko'chasi, 1-uy.
- jamiyatning elektron pochta manzili: www.clangren.uz, info@clangren.uz.

2-modda
Jamiyatning yuridik maqomi,
Jamiyatning huquq va majburiyatları

2.1. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'llishi mumkin.

2.2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtadan boshlab yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi.

2.3. Jamiyat o'zining nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan eri ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega bo'llishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida jamiyatning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

2.4. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtiroychilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'llishga haqli.

2.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.6. O'zbekiston Respublikasida bo'lgani singari uning hududi tashqarisida ham amaliyotdagi qonunchilikka riosa etgan holda chet ellik hamkorlar bilan shartnomalar, bitim va boshqa huquqiy dalolatnomalar tuzishi mumkin.

2.7. Jamiyat mahsulot va xizmatga bo'lган talab – ehtiyojdan kelib chiqib, o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtiradi, taraqqiyot istiqbollarini belgilaydi, hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishni ta'minlaydi, aksiyadorlar va mehnat jamoasi a'zolarining shaxsiy daromadini oshirish yo'llarini belgilab oladi.

2.8. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2.9. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchilagini o'z zimmasiga oladi.

2.10. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamanagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

2.11. Yangi qonunlar yoki qonunosti hujatlarning qabul qilinishi Ustavga, yangi qonunlarning me'yorlariga zid keluvchi qismiga o'zgarishlar kiritilishiga sabab bo'ladi.

2.12. Jamiyat cheklanmagan muddatga tuziladi.

3-modda

Jamiyat faoliyatining maqsadi

3.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi aksiyadorlik jamiyati sifatida o'z aksiyadorlarining manfaatlarida foyda olishdir.

3.2. Jamiyat faoliyatining mazmuni quyidagilardir:

- transport-ekspedisiya xizmatlari;
- yuklash va yuk tushirish xizmatlari;
- yuklarning bojxona deklarasiyasini rasmiylashtirish xizmati;
- yuklarni omborlarga tushirish va saqlash xizmati;
- yuklarni avtomobil va temir yo'l transporti orqali tashishni tashkil etish;
- logistikaviy konsalting xizmati;
- kompyuter-axborot dasturlar va texnologiyalarni ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, joriy qilish, o'rnatish va ulardan foydalanish;
- xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish va maishiy, sanoat jihozlarini ishlab chiqarish hamda ta'mirlash xizmati;
- qurilish mollari, yog'och mahsulotlari, qishloq xo'jalik, chorva, parranda va asalarichilik mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, tashish va sotish;
- qurilish, montaj, ta'mirlash ishlarini bajarish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish;
- chakana va ulgurji savdo bilan shug'ullanish;
- yarmarka, ko'rgazma va konferentsiyalar o'tkazish;
- firmalar va boshqa firmalarning ehtiyojlari uchun o'z valyuta mablaG'lari va qarz olingan mablaG'lar hisobiga tovar va xizmatlarni import qilish bo'yicha operasiyalarni amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- dizayn xizmatlari, shuningdek, smeta hujjalarni loyihalashtirish, tuzish va rasmiylashtirish xizmatlari;
- investision faoliyat, biznes-rejalar va loyihalarni ishlab chiqish, joriy qilish;
- elektrqurilmalarni, rele himoya avtomatika va o'Ichov, hamda yonG'in signalizasiyasini montaj qilish, ta'mirlash va sozlash, ularning loyiha smeta hujjalarni tayyorlash;
- oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'mol mollari, mebel, qurilish materiallari, neft mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni va ularni

savdo nuqtalari va o'z tijorat do'konlari tarmog'i hamda boshqa savdo tashkilotlari orqali sotishni tashkil qilish;

- aholi, qo'shma firmalar, firmalar, vatandoshlar va chet elliklardan, shu jumladan, xorijiy sayyoohlar va O'zbekiston Respublikasiga taklif bo'yicha kelgan fuqarolardan xalq iste'moli tovarlari, mahsulotlarni qabul qilish, naqd pulga va pul o'tkazish yo'li bilan sotib olish va sotish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish.

3.3. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnomasi (lisensiya) talab etiladigan faoliyat turlari Qonunchilik bilan belgilangan tartibda ruxsatnomasi berilganidan keyin amalga oshiriladi.

3.4. Jamiyat qonun hujjatlarida man etilmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan istalgan faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishi mumkin.

4-modda

Filiallar va vakolatxonalar, sho"ba va tobe xo'jalik jamiyatlar

4.1. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho"ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

4.2. Sho"ba xo'jalik jamiyati o'z mulkida o'z asosiy jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalariga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar o'z asosiy jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalarini olgan sho"ba xo'jalik jamiyati asosiy jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishida ovoz berishga haqli emas.

4.3. Tobe xo'jalik jamiyati o'z mulkida jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarini olgan tobe xo'jalik jamiyati jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishida ovoz berishga haqli emas.

4.4. Jamiyat amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa tashkilot yoki jamiyatning ishtirokchisi yoki ta'sischisi bo'lishi, filiallar, agentliklar, vakolatxonalar, shuningdek, chet ellik hamkorlar bilan birga qo'shma korxonalar tashkil etishi mumkin.

4.5. Jamiyatning filiali va vakolatxonasi yuridik shaxs bo'lmaydi. Ular jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ustav asosida ish yuritadi. Jamiyatning filialga va VAKOLATXONAgan berib qo'yilgan mol-mulki jamiyatning balansida hisobga olinadi.

4.6. Filialning yoki vakolatxonaning rahbari jamiyat tomonidan tayinlanadi va jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

4.7. Filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik ularni tashkil etgan va ochgan jamiyat zimmasida bo'ladi.

4.8. Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan erdagiga mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.9. Sho"ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyatni majburiyatlarini yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

4.10. Sho"ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan asosiy jamiyat bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun sho"ba xo'jalik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sho"ba xo'jalik jamiyati bilan solidar javobgar bo'ladi. Asosiy jamiyatning sho"ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqi faqat sho"ba xo'jalik jamiyati bilan tuzilgan shartnomada yoki sho"ba xo'jalik jamiyatining ustavida nazarda tutilgan taqdirda asosiy jamiyat bunday huquqqa ega deb hisoblanadi.

4.11. Sho"ba xo'jalik jamiyati asosiy jamiyatning aybi bilan bankrot bo'lgan taqdirda asosiy jamiyat sho"ba xo'jalik jamiyatining majburiyatlarini yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

4.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlarida nazarda tutilmagan hollarda quyidagilar taqiqlanadi:

- asosiy faoliyatiga xos bo'limgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish;
- raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish;
- asosiy faoliyatiga xos bo'limgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish.

5-modda

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) va aksiyalari

5.1. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitali) miqdori 6 519 015 000 (olti milliard besh yuz o'n to'qqiz million o'n besh ming) so'mni tashkil etadi va nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 1 303 803 (bir million uch yuz uch ming sakkiz yuz uch) dona oddiy egasi yozilgan naqdsiz aksiyalarga bo'lingan, ulardan 100 foiz aksiyalar joylashtirilgan.

5.2. Qo'shimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavi bilan belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

5.3. E'lon qilingan oddiy aksiyalar 5 556 119 (besh million besh yuz ellik olti ming bir yuz o'n to'qqiz) dona hujjatsiz aksiyalarni tashkil qiladi, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'mdan, umumi narxi nominal qiymati bo'yicha 27 780 595 000 (yigirma etti milliard etti yuz sakson million besh yuz to'qson besh ming) so'm.

5.4. Jamiyat tomonidan jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

5.5. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkining jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

5.6. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori lisensiya talablarida belgilanishi mumkin.

6-modda

Joylashtirilgan aksiyalarni jamiyat tomonidan olinishi

6.1. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumi yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumi sonini kamaytirish yo'li bilan jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek, ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida jamiyat kuzatuv Kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

6.2. Agar muomalada qolgan aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida nazarda tutilgan eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining umumi sonini kamaytirish maqsadida ularning bir qismini olish yo'li bilan jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

6.3. Aksiyalarni olish to'g'risidagi qarorda olinadigan aksiyalarning turlari, jamiyat oladigan har bir turdag'i aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek, aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilab qo'yilishi kerak.

6.4. Aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to'lash pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarni olish muddati aksiyalarni olish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi, bu muddat o'n kundan kam bo'imasligi kerak. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

6.5. Qaysi muayyan turdag'i aksiyalarni olish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, o'sha aksiyalarning egasi bo'lgan har bir aksiyador mazkur aksiyalarni sotishga haqli, jamiyat esa ularni olishi shart. Agar jamiyat tomonidan olinishi to'g'risida aksiyadorlarning arizalari tushgan aksiyalarning umumiy soni ushbu moddada belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda jamiyat olishi mumkin bo'lgan aksiyalarning sonidan ortiq bo'lsa, aksiyadorlardan arizada ko'rsatilgan talablarga mutanosib ravishda aksiyalar olinadi.

6.6. Aksiyalar olinadigan muddat boshlanishiga kechi bilan o'n kun qolganda jamiyat muayyan turdag'i aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarni jamiyat tomonidan aksiyalar olinishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor etishi shart.

6.7. Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

6.8. Keyinchalik qayta sotish maqsadida jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizasiya qilinishi kerak, aks holda, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizasiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

6.9. Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek, o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvgaga berishga haqli emas.

7-modda

Joylashtirilgan aksiyalarni jamiyat tomonidan olishga doir cheklovlar

7.1. Jamiyat o'zining joylashtirilgan oddiy aksiyalarini:

- jamiyatning butun ustav fondi (ustav kapitali) batamom to'languniga qadar;
- agar oddiy aksiyalarni olish paytida jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bunday belgilar u aksiyalarni olganligi natijasida paydo bo'lsa;
- agar oddiy aksiyalarni olish paytida jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan (ustav kapitalidan), zaxira fondidan va joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatining nominal qiymatidan ortiq qismidan kam bo'lsa yoxud aksiyalarni olish natijasida ularning miqdoridan kamayib ketsa, olishga haqli emas.

7.2. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 40 va 41-moddalariga muvofiq qaytarib sotib olish to'g'risida talab qo'yilgan hamma aksiyalar qaytarib sotib olinmaguniga qadar jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni olishga haqli emas.

8-modda

Aksiyalarni yiriklashtirish va maydalash

8.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning natijasida jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdag'i bitta yangi aksiyaga ayriboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

8.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdag'i ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayriboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

9-modda

Aksiyadorlarning talabiga ko'ra jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish

9.1. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

- jamiyatni qayta tashkil etish to'g'risida;
- joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 84-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim (bundan buyon matnda yirik bitim deb yuritiladi) tuzish to'g'risida;

- jamiyatning ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida aksiyadorlarning umumiylig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergen bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

9.2. O'zlariga tegishli aksiyalar jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati ovoz berish natijasida "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilgan aksiyadorlar umumiylig'ilishi ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

9.3. Jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish ushbu aksiyalarning bozor qiymati bo'yicha amalga oshiriladi, bu qiymat jamiyatning aksiyalarni baholashni va qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan harakati natijasida qiymatning o'zgarishi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

10-modda

Ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish va kamaytirish tartibi

10.1. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) mikdori mazkur ustav qoidalariga binoan ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

10.1.1. Ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirilishi

10.1.1.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'lli bilan ko'paytirilishi mumkin.

10.1.1.2. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'lli bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

10.1.1.3. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

10.1.1.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'lli bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

10.1.1.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'lli bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

10.1.1.6. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

10.1.1.7. Jamiyat tomonidan jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

10.1.1.8. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi qaroriga muvofiq qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

10.1.1.9. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi.

10.1.1.10. Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o'tkazishga haqli.

Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazishga haqli, yopiq obuna o'tkazish imkoniyati qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Aksiyadorlar o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning va jamiyatning roziligidiz o'zga shaxsga berishga haqli, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida belgilangan hol bundan mustasno.

10.1.1.11. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdag'i aksiyalarning soni ushbu turdag'i joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

10.1.1.12. Jamiyatning tegishli boshqaruvi organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi yoki aksiyaning nominal qiymatini oshirish haqidagi qaror jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

10.1.1.13. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat jamiyatning o'z kapitali hisobidan amalga oshiriladi.

10.1.1.14. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jaib qilingan investisiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

10.1.1.15. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdag'i aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdag'i aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

10.1.1.16. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va emission qimmatli qog'ozlarni, pul mablag'lari bilan to'lagan, konvertasiyalangan aksiyalarni joylashtirishda ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar joylashtirilayotgan aksiyalarni o'zlari egalik qilayotgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda xarid qilishga imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

10.1.2. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish

10.1.2.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning umumiyligi sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

10.1.2.2. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiyligi tomonidan qabul qilinadi.

10.1.2.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

11-modda

Dividendlarni to'lash

11.1. Jamiyatning xo'jalik faoliyati natijasida olgan foydasi soliqlarni to'lashdan keyin jamiyatning mulkida qoladi hamda amaldagi qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq qayta investisiyalar, jamiyatning fondlarini yaratish hamda aksiyalar bo'yicha dividendlar uchun ishlataladi.

11.2. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

11.3. Dividend aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

11.4. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

11.5. Jamiat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, agar "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

11.6. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

11.7. Dividendlarni e'lon kilish to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

11.8. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv Kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

11.9. Dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek, jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'limgan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

11.10. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

11.11. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmis kundan kech bo'lmasligi lozim.

11.12. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun etarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat etarli miqdorda foydaga ega bo'limgan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyat tomonidan jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

11.13. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qoladi.

11.14. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

11.15. Jamiyat:

a) jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

b) agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki jamiyatda shunday belgililar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

v) agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

12-modda

Jamiyatning fondlari va sof aktivlari

12.1. Jamiyatda ustav fondining (ustav kapitalini) o'n besh foizidan kam bo'Imagan miqdorda jamiyat zaxira fondi tuziladi. Jamiyatning zaxira fondi jamiyatning ustav fondida belgilangan miqdorga etguniga qadar har yili sof foydadan majburiy ajratmalar o'tkazish orqali tashkil etiladi. Jamiyatning zaxira fondiga har yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'Imasligi kerak.

12.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'Imagan taqdirda, jamiyatning zaxira fondi jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligasiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sorib olish uchun mo'ljallanadi.

12.3. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

12.4. Jamiyat ustavida boshqa fondlarni tashkil etish nazarda tutilishi mumkin.

12.5. Jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o'rtaсидagi farq sifatida aniqlanadi.

12.6. Agar ikkinchi moliya yili va undan keyingi har bir moliya yili tugaganidan keyin aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan yillik buxgalteriya balansiga yoki auditorlik tekshiruvi natjisiga muvofiq jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan (ustav kapitalidan) oz bo'lib chiqsa, jamiyat o'z ustav fondini (ustav kapitalini) sof aktivlari qiymatidan oshib ketmaydigan miqdorgacha kamaytirishi shart.

12.7. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish yoki jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmagan taqdirda uning aksiyadorlari, kreditorlari, shuningdek vakolatli davlat organlari jamiyatni sud tartibida tugatishni talab qilishga haqli.

13-modda

Aksiyadorlarning huquqlari

13.1. Aksiyadorlar:

- tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;

- depozitariydagi depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

- jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

- aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek, sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga etkazilgan zararning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan, boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;
- aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar ovoz berishda o'zaro hamkorlikda pozisiyasini shakllantirish uchun kelishuv tuzish huquqiga ega.
- minoritar aksiyadorlar jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga asossiz ravishda hujjatlarni talab qilib olishga, konfidentsial ma'lumotlar va tijorat sirlaridan foydalanishga haqli emas.

13.2. Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13.3. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

13.4. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tuzilgan taqdirda minoritar aksiyadorlar qo'mitasi xarajatlari aksiyadorlik jamiyatni hisobidan qoplanadi.

14-modda.

Jamiyat boshqaruvining tuzilmasi

14.1. Jamiyat boshqaruv organlari - Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi.

15-modda

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi

15.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

15.2. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini jamiyat kuzatuv Kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'limgan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

15.3. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishini) o'tkazishi shart.

15.4. Jamiyat Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishini qoida bo'yicha har yili 30 iyunda o'tkaziladi.

15.5. Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiyligi yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

15.6. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

16-modda

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolat doirasini

16.1. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan Haqning eng ko'p miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - jamiyatni qayta tashkil etish;
 - jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
 - jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
 - jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish va kamaytirish;
 - o'z aksiyalarini olish;
 - jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
 - jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
 - jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;
 - qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
 - aksiyadorlar umumiyligining reglamentini tasdiqlash;
 - aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
 - jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
 - balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
 - jamiyatning homiylikka sarflanadigan yillik xarajatlarini o'tgan yilda olingen sof foydaning 3 foizidan oshmagan miqdorda belgilash, jamiyat biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari to'liq bajarilganda amalga oshirish (bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno) to'g'risidagi qaror qabul qilish;
 - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.
- 16.2. Aksiyadorlar umumiyligining reglamenti vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

17-modda

Aksiyadorlar umumiyligining reglamenti qarorlari

- 17.1. Aksiyadorlarning umumiyligining reglamenti ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha quyidagilar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi:
- jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar;
 - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda jamiyatning imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar.

17.2. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori, agar "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

17.3. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovozga qo'yilgan, hal qilish chog'ida jamiyatning oddiy va imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Masala yuzasidan ovozlarni sanab chiqish ovoz beruvchi aksiyalarning barchasi bo'yicha birgalikda amalga oshiriladi.

17.4. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi va o'n to'rtinchi xatboshilarida hamda 84-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtadan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

17.5. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartibi jamiyatning ustavida yoki jamiyatning aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi to'g'risida"gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

17.6. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek, kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

17.7. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lган taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

17.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari ushbu qonunda hamda jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi.

17.9. Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

18-modda

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqi

18.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestridda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

18.2. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariyni o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi shart.

18.3. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

19-modda

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi axborot

19.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida etti kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek, aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

19.2. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;
- umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- umumiyligi yig'ilishi o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilibotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

19.3. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilibotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materialarga) jamiyatning yillik hisoboti, jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi, jamiyat kuzatuv Kengashining Bosh direktori, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek, jamiyatning kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, jamiyatning ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi kiradi.

20-modda

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga takliflar

20.1. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyat kuzatuv Kengashiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

20.2. Aksiyadorlar (aksiyador) jamiyat kuzatuv kengashiga o'zlarini ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

20.3. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

20.4. Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan, o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek, nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

20.5. Jamiyatning kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan muddat tugaganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

20.6. Jamiyat kuzatuv Kengashining masalani aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni jamiyat kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki

taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

20.7. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) aksiyadorlarning yillik umumiyligini yig'ilishi kun tartibiga o'zgartirish kiritishga, foydani taqsimlashga, aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishiga boshqaruv va nazorat organlari a'zoligiga nomzodlar ko'rsatishga haqli.

21-modda

Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

21.1. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rيلотгандада жамиятнинг кузатув кенгаши, "аксиадорлик жамиятлари ва аксиядорларнинг хукуqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda esa, umumiyligini chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

- umumiyligini yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;
- umumiyligini yig'ilishning kun tartibini;
- umumiyligini yig'ilish o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sanani;
- umumiyligini yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;
- umumiyligini yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rيلотгандада аксиядорларга тақдим етиладиган ахборот (материаллар) ro'yxatini;
- ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

21.2. Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, "turli masalalar", "boshqa masalalar", "o'zga masalalar" va shu singari ta'riflarning) aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

21.3. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

22-modda

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishi

22.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishi jamiyat kuzatuv Kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek, yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

22.2. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

22.3. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishini kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

22.4. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida jamiyat kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

22.5. Jamiyat kuzatuv kengashi "аксиадорлик жамиятлари ва аксиядорларнинг хукуqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddat ichida

aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumi yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni aksiyadorlar umumi yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

23-modda

Sanoq komissiyasi

23.1. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek, ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

23.2. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolari, jamiyat Bosh direktori, jamiyat boshqaruvi a'zolari, ishonchli boshqaruvchi, shuningdek, ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

24-modda

Aksiyadorlarning aksiyadorlar

umumi yig'ilishida ishtirok etish tartibi

24.1. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

24.2. Aksiyador aksiyadorlarning umumi yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtida almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

24.3. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumi yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan eri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

25-modda

Aksiyadorlar umumi yig'ilishining kvorumi

25.1. Agar aksiyadorlarning umumi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumi yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

25.2. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

25.3. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

25.4. Aksiyadorlarning takroriy umumi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish ushbu Ustavning 18-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

25.5. Kvorum bo'limganligi sababli aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

26-modda

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish

26.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish "jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz" printsipi bo'yicha amalga oshiriladi, jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

27-modda

Ovoz berish byulleteni

27.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

27.2. Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

27.3. Ovoz berish byulletenida: jamiyatning to'liq nomi, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqt va joyi, ovoz berishga qo'yilgan har bir masalaning ta'rifi va uni ko'rib chiqish navbatni, ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha "yoqlayman", "qarshiman" yoki "betarafman" degan mazmundagi so'zlar bilan ifodalangan ovoz berish variantlari ko'rsatilgan bo'lishi (bundan ovoz berishga qo'yilgan masalaga "yoqlayman" degan mazmundagi so'z bilan ifodalanadigan kumulyativ ovoz berish mustasno), ovoz berish byulleteni aksiyador (uning vakili) tomonidan imzolanishi lozimligi to'g'risidagi ko'rsatma bo'lishi kerak.

27.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

28-modda

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi

28.1. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiyligi yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiyligi yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

29-modda

Jamiyatning kuzatuv kengashi

29.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi.

29.2. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv Kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarorida belgilanadi.

29.3. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va jamiyatning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

30-modda

Jamiyat kuzatuv Kengashining vakolat doirasi

30.1. Jamiyat kuzatuv Kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiylig'i ilishlarini chaqirish, bundan "aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar umumiylig'i ilishining kun tartibini tayyorlash;

- aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejası jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullash;

- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish va aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- jamiyatning sho"ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishni ma'qullash va aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilashni ma'qullash va aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- faqatgina aksiyadorlarning umumiylig'i ilishi va qonun bilan belgilangan miqdordagi homiylik yoki beg'araz yordam to'g'risida qaror qabul qilish, yordam ko'rsatish (olish) shartlari

va tartibini, keyinchalik ushbu tartibni aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytida joylashtirish sharti bilan belgilash;

- tegishli masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi huzurida ishchi guruqlar tuzish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomasi tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish.

30.2. Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish kuzatuv kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

30.3. Jamiyat tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, jamiyat va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish bo'yicha kelishuvlari (bitim, shartnomasi, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda ushbu jamiyat kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan keyin tuziladi.

30.4. Kuzatuv kengashi har chorakda kamida bir marta:

jamiyat ijro etuvchi organi va ichki nazorat organlarining, shu jumladan, jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi hisobotini;

jamiyat asosiy (ustavdagi) faoliyati bilan bog'liq va bog'liq bo'limgan sho"ba xo'jalik jamiyatlari hamda filiallari (vakolatxonalar) faoliyati to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqadi.

30.5. Jamiyat kuzatuv Kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

31-modda

Jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolarini saylash

31.1. Jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolari "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan 5 nafardan iborat tarkibda uch yil muddatga saylanadi.

31.2. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar tanlov asosida belgilangan mezonlarga asosan tanlab olinadi.

Bunda kuzatuv kengashi tarkibini shakllantirish mezonlariga tarmoqqa oid bilim, boshqaruv tajribasi, moliyaviy, korporativ boshqaruv, strategik rejalashtirish hamda boshqa malakalar kiritiladi.

31.3. Har bir nomzod:

belgilangan mezonlar doirasida tegishli malaka talablariga muvofiq bo'lishi;

benuqson ishslash obro'siga ega bo'lishi;

faoliyatida raqobatchilar, asosiy etkazib beruvchilar bilan tizimli manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lmashligi;

kuzatuv kengashi a'zosi funktsiyasini bajarishi uchun zarur vaqt ajratishi lozim.

31.4. Har bir nomzod beshtadan ko'p bo'limgan kuzatuv kengashlarida a'zo bo'lib ishtirok etish mumkin, Qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

31.5. Davlat organlari xodimlari talab etiladigan malaka darajasiga mos bo'lishi, manfaatlar to'qnashuviga alomatlariga ega bo'lmashligi sharti bilan kuzatuv kengashi a'zoligiga saylanishlari mumkin.

31.6. Kuzatuv Kengashining, shu jumladan, mustaqil a'zoligiga nomzodlarni tanlash uchun xalqaro miqyosda etakchi bo'lgan konsalting va "xedxanter" tashkilotlari jalb qilinishi mumkin.

31.7. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibida mustaqil a'zolar ulushi bosqichma-bosqich 30 foizga etkazilishi mumkin.

Bunda kuzatuv Kengashlarining mustaqil a'zolari davlat organlari xodimlaridan tarkib topgan a'zolarni qisqartirish hisobiga shakllantiriladi.

31.8. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

31.9. Jamiyat boshqaruvi a'zolari va Bosh direktori, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari jamiyatning kuzatuv Kengashiga saylanishi mumkin emas.

31.10. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

31.11. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash miqdori aksiyadorlar umumiylig'ilishi yoki muassis qarori bilan tasdiqlangan kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

31.12. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

31.13. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv Kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

31.14. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv Kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

32-modda

Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi

32.1 Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan jamiyatning, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda kuzatuv Kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiylig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi.

32.2. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nngi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik etkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shart-noma mayjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik etkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nngi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funktsiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nngi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'llari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs; jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiyligining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjalarda belgilangan talablarga muvofiq bo'limgan shaxs.

32.3. Jamiyat jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarning reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

32.4. Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan tartibda boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

32.5. Jamiyat kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv Kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda teng huquqlar va majburiyatlargaga ega bo'ladi.

32.6. Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi boshqa a'zolar bilan bir xil vazifalarni bajarib, qarorlar qabul qilinishida mustaqillik tamoyilini ta'minlaydi.

33-modda

Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatları

33.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;

Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davrda jamiyatning faoliyati natijalari, uni rivojlantirish rejalarini to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

jamiyatga, shuningdek, uning sho'ba va tobe yuridik shaxslariga oid har qanday axborot(hujjat va materiallar)ni jamiyat ijro organidan talab qilish va olish;

kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini kuzatuv kengashi Majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

kuzatuv kengashi Majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish;

kuzatuv kengashi va jamiyatning boshqa kollegial organlari majlislari bayonnomalari bilan tanishish va ularning nuxxalarini olish;

qonunchilikda va jamiyatning ichki hujjalarda belgilangan tartibda kuzatuv kengashda ishlagan davri uchun haq va (yoki) xarajatlarining kompensasiyasini olish.

33.2. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab vijdowan va oqilona ish tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi jamiyat hujjalarni oshkora qilmasliklari lozim.

33.3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mavqeini va jamiyat faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.

33.4. Kuzatuv kengashi a'zolari kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda kuzatuv kengashini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli.

33.5. Affillangan shaxs bo'lgan kuzatuv Kengashining a'zosi jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli

shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirgi yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

33.6. Kuzatuv kengashi a'zolari kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatganlik uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

33.7. Kuzatuv kengashi a'zolari jamiyat imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlari, jamiyatning faoliyati va rejalar to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

33.8. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga majburdirlar.

33.9. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi fidusiar majburiylarni bajarishlari lozim:

jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zosidan vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati — kuzatuv kengashi a'zolaridan, birinchi navbatda, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zolaridan jamiyatga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyojkorlik bilan yondashish;

mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

34-modda

Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

34.1. Jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

34.2. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

34.3. Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergen jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

34.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga etkazilgan zararlarning o'rnnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

34.5. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilar natijasida jamiyatga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalq'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

qonunchilikda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zları yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foya (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

35-modda

Kuzatuv Kengashining qo'mitalari

35.1. Jamiyatda kuzatuv kengashi qarori bilan quyidagi qo'mitalar tashkil etiladi:

Strategiya va investisiyalar qo'mitasi;

Audit qo'mitasi;

Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

35.2. Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomlarda belgilanadi.

35.3. Qo'mitalar tarkibi kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'ladi. Zarur hollarda qo'mitalar ishiga jamiyat ijro organlari a'zolari, jamiyat xodimlari va tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.

35.4. Qo'mitalar a'zolari jamiyat kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi asosida kuzatuv kengashi a'zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi qo'mita a'zolari orasidan qo'mita raisini tayinlaydi.

35.5. Qo'mita majlisida uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok qilsa, Majlis vakolatli hisoblanadi, bunda qo'mita raisi ishtirok etishi shart. Majlisda qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Har bir qo'mita a'zosi bir ovozga ega.

35.6. Qo'mitaning qarori Majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnomaga qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va u ovoz berishda qatnashgan a'zolari tomonidan imzolanadi.

36-modda

Jamiyat kuzatuv Kengashining raisi

36.1. Jamiyat kuzatuv Kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolarining umumiyligi soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

36.2. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'z raisini kuzatuv kengashi a'zolarining umumiyligi soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

36.3. Jamiyat kuzatuv Kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnomaga yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida raislik qiladi.

36.4. Jamiyat kuzatuv Kengashining raisi bo'limgan taqdirda uning vazifasini kuzatuv Kengashining a'zolaridan bira amalga oshiradi.

37-modda

Jamiyat kuzatuv Kengashining Majlisi

37.1. Jamiyat kuzatuv Kengashining Majlisi kuzatuv Kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv Kengashi, ijroiya organi a'zosining talabiga ko'ra chaqiriladi.

Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilishga haqli.

37.2. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum kuzatuv Kengashiga saylangan a'zolarning etmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

37.3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning etmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat kuzatuv Kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv Kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek, jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

37.4. Mazkur jamiyat ustavida kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda kuzatuv Kengashining qarorini qabul qilishda jamiyat kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi nazarda tutildi.

37.5. Jamiyat kuzatuv Kengashining majlisida qarorlar, agar kuzatuv Kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv Kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv Kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasining ikkinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

37.6. Jamiyat kuzatuv Kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv Kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

37.7. Jamiyat kuzatuv Kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) jamiyat kuzatuv Kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

37.8. Jamiyat kuzatuv kengashi Majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular Majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

37.9. Har chorakda jamiyat ijro organining hisobotini eshitish bo'yicha kuzatuv Kengashining majlislarini sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

37.10. Kuzatuv kengashi tomonidan videokonferentsiyaaloqa tizimi orqali va elektron ovoz (e-VOTE) berish yo'li bilan o'tkaziladigan majlislarda jamiyat ijro organining hisobotini eshitilishi mumkin.

38-modda

Jamiyatning ijroiya organi

38.1. Jamiyatning joriy faoliyati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida uch yil muddatga saylangan yagona ijroiya organi – Bosh direktor tomonidan boshqariladi.

Ijro etuvchi organ faoliyatining ijobjiy natijalariga ko'ra vakolatlarini keyinchalik uzaytirish, shuningdek, qoniqarsiz natijalarga ko'ra muddatidan ilgari bo'shatish sharti bilan uch yil muddatga saylanadi. Bunda ijro etuvchi organ a'zolariga nomzodlarni tanlash uchun xalqaro miqyosda etakchi bo'lgan konsalting va "xedxanter" tashkilotlari jalb qilinishi mumkin.

38.2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Bosh Direktor saylanadi yoki vakolati to'xtatiladi. Bosh direktorni tayinlash to'g'risidagi qaror xorijiy menejer ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi. Bosh direktor lavozimiga tanlovda ishtirok etish uchun ariza qonunchilikda belgilangan tartibda nomzod tomonidan beriladi.

Ijro etuvchi organ rahbari va a'zolari nomzodlariga qo'yiladigan malaka talablari (ma'lumoti, tijorat, moliya va sohaviy tajriba va boshqalar) jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

38.3. Jamiyatning kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradigan masalalardan boshqa barcha jamiyatning joriy faoliyati bilan bog'liq barcha masalalar jamiyat Bosh Direktorning vakolatiga kiradi.

38.4. Jamiyatning Bosh Direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv Kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

38.5. Jamiyatning Bosh Direktori jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning quyi

tashkiloti rahbarini tayinlaydi, Shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

38.6. Bosh Direktoring huquq va majburiyatlar jamiyatni "ijro organi to'g'risida"gi nizomida belgilanadi.

38.7. Bosh Direktor tomonidan shartnoma shartlari buzilgan taqdirda kuzatuv kengashi jamiyatning Bosh Direktori bilan tuzilgan shartnomani muddatidan ilgari to'xtatishi mumkin.

38.8. Bosh direktorning vakolatlari:

- Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosini tashkillashtirish;

- Jamiyatning shartnomaviy vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi;

- Jamiyat nomidan hujjatlarni imzolaydi;

- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ularning malaka va tajribalaridan unumli foydalanish chorasini ko'radi;

- Mehnat va texnologik intizomni ta'minlaydi.

38.9. Aksiyadorlarning vakili sifatida ishtirok etayotgan ijroiya organi a'zosi ijroiya organi a'zolarini saylashda ovoz berish huquqiga ega emas.

38.10. Ijro organi rahbari sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo'lishi mumkin emas.

38.11. Jamiyat ijro etuvchi organiga to'lanadigan haq miqdori aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan ijro organiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

38.12. Jamiyat ijro etuvchi organi a'zolariga to'lanadigan haq tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- jamiyat jamoa shartnomasida nazarda tutilgan qat'iy belgilangan haq (ish haqi, kompensasiya, boshqa to'lovlari);

- haq to'lashning mukofot qismi — samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarining chorak yakuni bo'yicha ko'rsatkichlari ijrosi ta'minlangan taqdirda, to'lanadigan qo'shimcha haq, shuningdek, yillik yoki uch yillik faoliyat natijasiga ko'ra samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari ijrosining bonus ko'rinishidagi to'lovlari.

38.13. Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyat strategiyasi va ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni ko'rsatish majburiyatlaridan kelib chiqqan holda, aniq belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak.

38.14. Biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari "past" yoki "qoniqarsiz" deb baholangan taqdirda kuzatuv kengashi qaroriga asosan ijro organi tomonidan o'tgan hisobot yilida to'langan mukofotni belgilangan tartibda to'liq jamiyatga qaytariladi.

38.15. Ijro organi rahbarining harakati (harakatsizligi) natijasida jamiyat manfaatlariga etkazilgan har qanday zarar, ziyon, ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarima, penya va boshqa majburiy to'lovlari uchun subsidiar javobgarlik u bilan tuziladigan mehnat shartnomasida qat'iy belgilanadi.

38.16. Ijro organi javobgarligini majburiy sug'urtalanadi.

38.17. Jamiyat mulki hisobini yuritish, uning to'liqligi va to'g'rilibagini ta'minlash maqsadida jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritishga oid kelishuvlar loyihibalarini (bitim, shartnoma, memorandumlar) majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi. Jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritishga oid kelishuvlar loyihibalarini (bitim, shartnoma, memorandumlar) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining ijobiy xulosasi olingandan so'ng belgilangan tartibda jamiyat kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritadi.

38.18. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va kuzatuv kengashi bayonlarini "Davlat mulki" axborot tizimiga joylashtirilmaganda, korporativ boshqaruv tizimini baholash amalga oshirilmaganda, Davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar (Agentlikning "Davlat mulki" axborot tizimiga biznes-reja ko'rsatkichlari va SMK, shuningdek korxonalar veb-saytlariga ma'lumotlar kiritib borilishi) taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda ijroiya organi rahbarlarini rag'batlantirishga yo'l qo'yilmaydi.

39-modda

Jamiyatning minoritar aksiyadorlari qo'mitasi

39.1. Minoritar aksiyadolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadolarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

39.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar jamiyatga jamiyat kuzatuv Kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

39.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadolarning umumiyligi yig'ilishida hozir bo'lgan va jamiyat kuzatuv Kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadolarning o'tkazilayotgan umumiyligi yig'ilishida kuzatuv Kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

39.4. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga jamiyatning Bosh direktori, boshqaruv a'zolari, shuningdek jamiyatning kuzatuv Kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

39.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

aksiyadolarning umumiyligi yig'ilishi yoki jamiyatning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

minoritar aksiyadolarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

qonun hujjalari va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

39.6. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rtdan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

39.7. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni 3 nafardan iborat tarkibda aksiyadolarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi.

39.8. Minoritar aksiyadolarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadolarning umumiyligi yig'ilishida hisobot beradi.

39.9. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

39.10. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha jamiyatning hujjalardan foydalanish huquqiga ega.

39.11. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

39.12. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

39.13. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyatiga jamiyat kuzatuv Kengashining yoki ijroiya organining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

40-modda

Jamiyat korporativ maslahatchisi

40.1. Jamiyatning ustavida jamiyat kuzatuv Kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimini joriy etish nazarda tutilishi mumkin.

40.2 jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

40.3. Korporativ maslahatchi strategiyaning joriy etilishi uchun to'liq javobgar bo'lgan ijro etuvchi organ ishini muvofiqlashtiradi.

41-modda

Jamiyatning ichki audit xizmati

41.1. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv Kengashiga hisobdordir.

41.2. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operasiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek, jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

41.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini, agar qonunda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

42-modda

Auditorlik tashkiloti

42.1. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

42.2. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida etkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

42.3. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatda auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega.

43-modda

Yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi

43.1. Jamiyatda buxgalteriya hisob-kitobini tashkil etish, uning holati va to'g'ri yuritilishi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliya hisobotlari, shuningdek, aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalariga jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq Bosh direktor zimmasida bo'ladi.

43.2. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni matbuotda e'lon qilishdan oldin jamiyat yillik moliya hisobotini har yilgi tekshirish va tasdiqlash uchun jamiyat yoki aksiyadorlar bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkilotini jalb etishi shart.

44-modda

Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

44.1. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lism, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

44.2. Yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, bundan qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish mustasno.

44.3. Jamiyat boshqa yuridik shaxsga qo'shib yuborish yo'li bilan qayta tashkil etilganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qo'shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritgan paytdan e'tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

44.4. Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi yozuvni kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

44.5. Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyat o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklida xabardor etadi. Kreditor jamiyatdan majburiyatlarni tugatishni yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararlarning o'rnini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabardor etish orqali talab qilishga haqli:

- qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay;

- bo'lism yoki ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran oltmis kundan kechiktirmay.

44.6. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan jamiyatning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar javobgar bo'ladi.

44.7. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qayta tashkil etish natijasida tugatilayotgan jamiyat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan, shuningdek, u yuridik shaxslarning yagona davlat reestridan chiqarilganidan keyin yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi.

44.8. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

44.9. Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni tugatish va tugatuvchini yoki tugatish komissiyasini (bundan buyon matnda tugatuvchi deb yuritiladi) tayinlash to'g'risidagi masalani aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

44.10. Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi.

44.11. Jamiyat sudning qaroriga ko'ra tugatilayotganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

44.12. Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

45-modda

Yakuniy qoidalar

45.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga asosan hal qilinadi.

45.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'limgan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

45.3. Mazkur ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.